

BA‘ZI BIR DARAXT O‘SIMLIKLARNING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHI

Raximova Tashxanim

O‘ZRFA Botanika instituti etakchi ilmiy xodim

Matkarimova Anarjan Abdikarimovna, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Tursuntosheyva Aziza Hikmatullo qizi

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti matkarimovaanora@455
jmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaharlarini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, infratuzilmasini yaxshilashda keng miqyosda o‘sadigan manzarali daraxt turlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *daraxt, infratuzilma, ko‘kalamzorlashtirish, manzaraviylik, nabotot, obodonlashtirish, shifobaxsh, fitonsid.*

Kirish

Respublikamizda aholi yashash hududlarini ko‘kalamzorlashtirishda manzaraviylik xususiyatlari yuqori bo‘lgan hamda ekologik omillarga chidamli bo‘lgan daraxt va buta turlarini ko‘paytirish va ularning manzarali shakllariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shuningdek shaharlarini obodonlashtirish, infratuzilmasini yaxshilash va zamonaviy arxitektura qoidalariga mos ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borishda kontinental iqlimga mos keladigan daraxt va butalarning chidamli va istiqbolli turlarini obodonlashtirish sohalariga qo‘llash hozirgi vaqtda katta ahamiyatga egadir.

O‘simliklar qadim zamonlardan shu kunga qadar tabiat va insonlar hayotida katta rol o‘ynab keladi. O‘simliklar uyimiz derazasida, stolimizda dasta holida, hovlimiz atrofida, ko‘chalarda, bog‘larda hiyobonlarda o‘sadi.

Shahar sharoitida o‘suvi o‘simliklarning ya‘ni tirik firlilik xususiyati ham mavjud. Ular havodan turli iflos chiqindilarni, changlarni yutadi. Bejiz aytilmagan axir “o‘simliklar shaxarning o‘pkasidir”.

Insoniyat hayoti o‘simliklar olami bilan uzviy bog‘langan. Barchaga ma‘lumki, nabotot olami insonni to‘ydiradi, kiyintiradi, havoni poklab berad, so‘lim go‘shalar yaratadi, xo‘jalik va qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi, ko‘zga zavq beradigan go‘zal manzara yaratadi, tuproqni eroziyadan saqlab, namlikni ushlab turadi, harorat beradi... Xullas, o‘simliklarning serxosiyat taraflarini sanab intiqosiga yetish qiyin. So‘z nabotot olamining xosiyatlari ustida borar ekan, ularning ajoyib xislatlaridan biri-shifobaxshligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tmasdan bo‘lmaydi.

Hozirda ilmiy tibbiyotda qo‘llanilayotgan dori-darmonlarning qarayib 40 % dan oshig‘ini o‘simlik mahsulotlari tashkil qiladi.

Bir qator olimlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, tabiat ne'matlaridan olinadigan doridarmonlar kimyoviy-sun'iy ravishda olinadigan vositalarga nisbatan afzalligi bilan ajralib turadi. Chunki tabiat ehsoni bo'lmish o'simliklardan tarkib topgan dorilar deyarli asoratsiz hisoblanadi.

Daraxtlarning shox-shabballari shifobaxsh ozon moddasini paydo bo'lishiga yordam beradi, ularning gullari, mevalari, barglari va kurtaklari fitonsid moddalari ajratib, inson salomatligiga xavfli bo'lgan har xil mikroblarni o'ldirishda ishtirok etadi. Ana shunday ba'zi bir daraxt o'simliklarning shifobaxshlik xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.

Metodlar. O'simlik turlarini aniqlash uchun rus va o'zbek tilida yozilgan aniqlagichlar va “Flora O'zbekistana” 6 tomli kitoblardan foydalanildi. O'simliklarni floristik tavsiflash umumiy qabul qilingan qoidalar orqali olib borildi[4].

Natijalar. Oddiy qarag'ay - *Pinus silvestris* L. Daraxt, bo'yi 20-40 m. Shoxlarining po'stlog'i qoramtir, yosh shoxchalari och qo'ng'ir rangli. Barglari silindrsimon. Urug'chi qubbalari yosh novdalarining uchida bittadan yoki bir nechtadan joylashgan. Qubbalari 2-yili yetiladi, tukxumsimon-konussimon (1-rasm).

Tibbiyotda oddiy qarag'ayning kurtagidan, bargi va undan olinadigan efir moyidan hamda tanasidan tilib olinadigan smoladan foydalaniladi. Qarag'ay kurtagidan tayyorlangan preparatlar ta'siridan nafas yo'llari shilliq pardasining shilimshiq ishlab chiqaradigan hujayralari faoliyatini oshirib, balg'am ko'chirishni yengillashtiradi, yo'talni kamaytiradi. Kurtak ekstrakti bakteriyalarga qarshi va qisman siydik haydovchi ta'sirga ega. Daraxt kurtagidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma nafas yo'llarining yallig'lanishida antiseptik va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida keng ishlatiladi.



1-rasm. Oddiy qarag'ay - *Pinus silvestris*
Oddiy eman - *Quercus robur* L.

Daraxt. Shoxlari qizg‘ish-qo‘ng‘ir. Barglari oddiy. Teskari tuxumsimon. Mevasi yong‘oqcha. Aprel-may oylarida, mevasi sentyabr-oktyabr oylarida pishib yetiladi. Manzarali o‘simlik (2-rasm).



2-rasm. Oddiy eman - *Quercus robur*

Eman mevasi turli kasalliklarni, shu jumladan o‘pka kasalliklarini davolagan.

Xalq tabobatida eman po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatma og‘iz, tomoq yallig‘lanishida ishlatiladi.

Tibbiyotda esa eman po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatma burishtiruvchi va antiseptik dori sifatida og‘iz shilliq pardasining yallig‘lanishida og‘iz va tomoqni chayish uchun beriladi.

Oddiy siren - *Syringa vulgaris* L. Siren katta buta o‘simlikdir. Ba‘zan daraxtga ham o‘xshab o‘sadi. Siren zaytundoshlar oilasiga mansub bo‘lib, barglari tekis qirg‘oqli, bir-biriga qarama- qarshi joylashgan. Gullari g‘uj o‘rnashgan, aprel-iyun oylarida gullaydi. Guli ko‘p bo‘lib, uzoq vaqt so‘limay turadi. Tarkibida ohak bo‘lgan suvli yerda yaxshi o‘sadi. Mevasi sentyabr-oktyabrda pishadi (3-rasm).

Hovlilarda tomorqa bog‘larda gruppalar va yakka- yakka ekish uchun, shuningdek park va skver etaklarini o‘rab olish uchun sirendan keng ravishda foydalaniladi. Undan yaxshi gul dasta qilish mumkin.

Sirenni yog‘och qismi juda mustaxkam, qattiq va og‘ir bo‘lib, duradgorlik va o‘ymakorlik ishlari uchun qimmatbaxo material sifatida foydalaniladi. Gullaridan olingan ekstraktlaridan parfyumeriyada keng qo‘laniladi. 500 gr gul massasida 4 gr xushbo‘y ekstrakt olish mumkin.

Xalq tabobatida siren gulidan tayyorlangan damlamadan buyrak toshi kasalliklarini oldini olishda qo‘llaniladi.



3-rasm. Oddiy siren-Syringa vulgaris

Soxtakashtan - Aesculuse. hippocastanum L. Bo‘yi 10-35 m li bir uyli daraxt. Kurtaklari yirik, yopishqoq. Barglari murakkab panjasimon, qarama-qarshi o‘rnashgan. Gullari yirik, oq yoki oqish-pushti. Mevasi seret, yumaloq (4-rasm).

April-may oylarida gullab, avgust-sentyabrda ko‘saklari pishadi.

Manzarali o‘simlik. Urug‘i tarkibida glikozidlar, flavonoidlar, saponinlar, yog‘, kraxmal, oqsil oshlovchi moddalar bor. Soxta kashtan urug‘idan tayyorlangan ekstrat-eskuzan tromboflebit va vena qon tomiri kengayishi oldini olish va davolashda hamda bavoasil, aterosklerozda ishlatiladi.



4-rasm. Soxtakashtan - Aesculus hippocastanum

Yapon saforasi - *Sophora japonica* L. Daraxt. Tanasi va eski shoxlari qoramtir rangli. Yosh novdalari yashil-sarg'ish rangli. Barglari murakkab toq patsimon, poyada ketma-ket o'rtnashgan. Gullari sariq. Mevasi tasbehsimon dukkak.

Iyun-iyul oylarida gullab, mevasi avgust-sentyabrda pishib yetiladi (5-rasm).

Manzarali o'simlik. Tuxumakning g'uncha va mevasi tarkibida flavonoidlar, S vitamini, bo'yoq, oshlovchi moddalar bo'ladi. Tibbiyotda tuxumak daraxtining gul g'unchasi va mevasidan foydalaniladi. Tuxumak gul g'unchachidan farmasevtika zavodlarida rutin va kversetin olinadi. Mevasi nastoykasi yiringli va trofik yaralar va kuygan joylarni davolashda qo'llanadi.



5-rasm. Yapon saforasi - *Sophora japonica*

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aholi yashash joylarida manzarali daraxtlar va butalarni ko'plab ekishimiz va ularni ko'paytirishimiz lozim, chunki ular shamol kuchini, shovqinni pasaytiradi, issiqlik rejimini tartibga soladi, havoni changdan va har-xilza rarli sanoat chiqindilaridan, patogen mikroorganizmlardan tozalaydi. Daraxtlar shahar - qishloqlar aholisining dam olishi, sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etishda yaxshi muhit yaratishga xizmat qiladi.

O'simliklarni chin ma'noda, ularga e'tiborli bo'lishimiz, yurtimiz chiroyiga o'zgacha ko'rk bag'ishlayotgan bu o'simliklarni muxofaza qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matkarimova A.A., Maxkamov T.X., Maxmudova M.M., Azizov X.Ya., Vaisova G.B. Botanika. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. - 298 b.
2. Qalandarov M.M. Ko'kalamzorlashtirish ishlari: o'quv qo'llanma –T.: Faylasuflar» nashriyoti, 2015, 88 bet.

3. Qayimov A.K, Berdiev E.T, Hamroyev H.F, Turdiev S.A. Dendrologiya. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 360 bet.
4. Флора Ўзбекистана, -Ташкент. 1941.-1962.-301 б.
5. [http:// www. Flora findir.com](http://www.Flora.findir.com).